**UDK. 638.165.18.**

# HAR XIL TURDAGI UYALARDA PARVARISh QILINGAN ASALARI OILALARINING MAHSULDORLIGI.

**Sindarova Mashhura Sherali qizi**
Mustaqil izlanuvchi

**Anotatsiya:** Asalari oilalarining mahsuldorligini oshirish maqsadida, bahorgi kichik asalari oilalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda asalarizorda oila soni ko‘payibgina qolmay, balki uning mahsuldorligi ham sezilarli darajada oshadi. Asalarichilikda o‘tkazilayotgan ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asalari oilasi mahsuldorligini oshirishda erta bahorda ona asalari yetishtirish, asalari shaxobchalarini shakllantirish va kichik asalari oilalarini (paketlar) tashkil qilish va ularni jadal usulda boqish oilalar mahsuldorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

**Калит сўзлар:** уя, ёток, парвариш, иссиқ, пакет, ҳаво, асалари, оила, қуруқ, магазин, куз, зот, ром, мумпарда, кичик оила, озуқа.

**Аннотация:** Результаты исследований показывают, что в условиях Узбекистана целесообразно содержать пчелиные семьи в однокорпусных ульях. Это обусловлено их конструкцией, приспособленностью к жаркому климату, увеличенным объемом (по сравнению с другими типами ульев), простотой устройства, наличием воздушного пространства под крышей и вместимостью большого количества рамок.

**Ключевые слова:** пчеловодство, улей, гнездо, тепло, крыша, воздух, пчел, семья, гнездо, лежак, уход, рой, сухость, хранилище, осень, размножение, рамки, соте, малая семья, кормление, восковые соты, двухкорпусный, зимовка.

**Abstract**: Research results indicate that, under the conditions of Uzbekistan, it is advisable to keep bee colonies in single-body hives. This is due to their design,

suitability for a hot climate, increased volume (compared to other hive types), simplicity of construction, the presence of an air space beneath the roof, and their capacity to hold a large number of frames.

**Keywords**: beekeeping, hive, nest, warmth, roof, air, bees, colony, nest, horizontal hive, care, swarm, dryness, storage, autumn, reproduction, frames, comb, small colony, feeding, wax combs, two-story, overwintering.

**I.KIRISh**

Kichik asalari oilalarini (paketlar) tashkil etish muddatlari katta ahamiyatga ega. Erta bahorda kichik asalari oilalari (paketlar) tashkil etilib, ularni Rossiyaning shimoliy o‘lkalariga jo‘natib, asal mahsuloti olishga erishilgan. [2]

**II. TADQIQOTNING MATERIALI VA USLUBI.**

Tadqiqotlarimizda har-xil turdagi uyalarda kichik asalari oilalarini tashkil etib, ulardan keng foydalanish, oilalar mahsuldorligi, ilmiy va amaliy ahamiyati o‘rganildi. [3]

Kichik asalari oilalari barcha guruhlarda tenglik asosida tashkil etilib, ularga 4 tadan rom, shundan 2 tasi ozuqa asali, 2 tasida esa ochiq va yopiq naslli romlar qo‘yildi. Ulardagi ishchi asalari miqdori 1,2 – 1,4 kg atrofida edi.

Olingan ma’lumotlarga Styudent mezonlari yordamida, Merkureva Ye.K. (1970, 1991), uslubi bo‘yicha, (R) qiymat darajasiga ko‘ra statistik ishlov berildi, hisob-kitob ishlari MS OFFICE (Microsoft Excel) dasturlari bo‘yicha kompyuterda korrelyatsiya qilindi.

**III.Tadqiqot natijalari.**

Kichik asalari oilalari tashkil etilgandan so‘ng, ona asalarilarning kunlik tuxum qo‘yish darajasi 15 mayda yotoq, ikki qavatli va ko‘p qavatli uyalarda 1140 donadan 1158 donagacha kamaydi. Bu ko‘rsatkich oy oxirigacha shu darajagacha saqlanib turdi va iyun oyidan boshlab paketlarda o‘sish va rivojlanish kuzatila boshlandi. Bunda, asalari paketlari asal to‘plashga yaxshigina ko‘maklashdi, gullardan ko‘pgina gulchang

keltirdi va yosh asalari naslini faol tarbiyaladi. Bunday oilalarda asalarilarning bir uyada to‘planib qolish hollari kuzatilmadi.

Asalari paketlari avgust oyining o‘rtalarida 7-8 tadan romlarga ega bo‘ldi. Bunday paketlarda 4,2-6,0 kg gacha ishchi asalarilar bor edi.

2025 yilning iyun va avgust oylarida o‘tkazilgan tajribalar davomida ertalab soat 8-10 larda 90 % ga yaqin asalarilar asosan gullardan shira to‘plashga kirishganligi kuzatildi. Quyidagi jadvalda tashkil etilgan bahorgi kichik asalari oilalari (paketlarni) o‘sish va rivojlanish dinamikasi keltirilgan.

**Bahorda tashkil etilgan kichik asalari oilalarining rivojlanish dinamikasi (2025 yil 15 iyun holati bo‘yicha)**

1-jadval

| Uyalarning turlari | Oila kuchi (kg) | | Yopiq nasl (kvadrat) | | Ona asalarini tuxum qo‘yishi (dona) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | X±Sx | Cv % | X±Sx | Cv, % | M±m | Cv, % |
| Yotoq | 3,2±0,02 | 1,3 | 210,2±1,1 | 1,6 | 1440,4±8,4 | 1,6 |
| Ikki qavatli | 2,6±0,01 | 1,8 | 172,6±1,8 | 3,0 | 1280±14,8 | 3,0 |
| Ko‘p qavatli | 2,0±0,03 | 2,3 | 140,4±1,4 | 2,0 | 1160±4,9 | 2,0 |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 15 iyunda nazorot qilingan kichik asalari oilalarida yotoq uyalarda 3,2 kg, ikki qavatli uyalarda 2,6 kg, va ko‘p qavatli uyalarda 2,0 kg ishchi asalarilarni tashkil qildi. Ona asalarilarning kunlik tuxum qo‘yishi yotoq uyalarda 1440,4 dona, ikki qavatli uyalarda 1280 dona, va ko‘p qavatli uyalarda 1160 donani tashkil etdi.

**Kichik asalari oilalarining rivojlanish dinamikasi (2025 yil 15 avgust holati bo‘yicha)**

**2-jadval**

| Uyalarning | Oila kuchi (kg) | Yopiq nasl (kvadrat) | Ona asalarini tuxum qo‘yishi (dona) |
|---|---|---|---|

| turlari | X±Sx | Cv % | X±Sx | Cv, % | M±m | Cv, % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yotoq | 6,0±0,01 | 1,2 | 408,6±1,1 | 1,3 | 1880,2 ± 6,4 | 1,3 |
| Ikki qavatli | 5,4±0,02 | 1,6 | 368,4±1,6 | 1,6 | 1684,4 ± 7,9 | 1,6 |
| Ko‘p qavatli | 4,2±0,04 | 2,0 | 340,8±1,2 | 1,8 | 1620 ± 8,2 | 1,8 |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 15 avgustda nazorot qilingan kichik asalari oilalarida yotoq uyalarda 6,0 kg, ikki qavatli uyalarda 5,4 kg, va ko‘p qavatli uyalarda 4,2 kg ishchi asalarilarni tashkil qildi. Ona asalarilarning kunlik tuxum qo‘yishi yotoq uyalarda 1880,2 dona, ikki qavatli uyalarda 1684,4 dona va ko‘p qavatli uyalarda 1620 donaga ko‘paydi yoki o‘sish sur’ati 150,5% ni tashkil etdi.

Shu davrda kichik asalari oilalarining (paketlar) mahsuldorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Bunda oila kuchi, yalpi asal mahsuldorligi va yangi rom qo‘shish kabi ko‘rsatkichlar e’tiborga olindi. Quyidagi 3-jadvalda bahorda tashkil etilgan asalari paketlarini mahsuldorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

**Kichik asalari oilalarining (paketlar) mahsuldorligi.**

**3-jadval**

| Ko‘rsatkichlar | n | Yotoq uyalar | Ikki qavatli uyalar | Ko‘p qavatli uyalar |
|---|---|---|---|---|
| Oila kuchi, kg | 10 | 6,0 | 5,4 | 4,2 |
| Yalpi asal, kg | 10 | 18 | 15,2 | 12,1 |
| Yangi rom qo‘shildi, dona | 10 | 30 | 24 | 20 |

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, bahorda tashkil etilgan kichik asalari oilalari (paketlar) qisqa vaqt ichida rivojlanib, asosiy oiladek kuchga yani 4,2 kg dan 6,0 kg gacha ega bo‘ldi va o‘tgan davr mobaynida 12,1 kg dan 18 kg gacha yalpi asal hosili to‘pladi. Har bir yotoq uyaga 3 donadan jami 30 ta qo‘shimcha rom, har bir ikki

qavatli uyaga 2 donadan jami 24 ta qo‘shimcha rom, har bir ko‘p qavatli uyaga 2 donadan jami 20 ta qo‘shimcha rom qo‘yildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

1. Igoshin O.Yu. “Sovershenstvovanie texnologii soderjaniya i razvedeniya pchel v usloviyax ulyanovskoy oblasi. Avtoreferat dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata selskoxozyaystvennых nauk. – Ulyanovsk, 2014.

2. Kaxramanov B.A., Safarova F.E., Isamuxamedov S.Sh., Donaev X.A., Ergashev X.B. Asalarichilik asoslari. - Toshkent, 2021. – B. 78-97.

3. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh, Kuldasheva F.H, Donyrov S.T, Rakhimjanova N.Z. Breeding indicators of Carniolan (*Apis mellifera carnica Pollm*) and Carpathy (*Apis mellifera carpatica*) honey bees // E3S Web of Conferences 244, 02008 (2021) TPACEE-2021. https://www.researchgate.net/publication/350180085

4. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh, Safarova F.E., Donaev Kh.A., Mamadov F.Q. Morphological features of the Carniolan (Apis mellifera carnica Pollm) and Carpathian (Apis mellifera carpatica) breeds of honey bees // E3S Web of Conferences 284, 03018 (2021) TPACEE-2021. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128403018 - R. 1-7.

5. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh., Orifjonov.J.R., Raimdjanova N.Z. **Continuous and terms of work performed in artifikal mother bees** // Prospects for the introduction of innovative tehnologies in the development of agriculture. 2021. 05.07. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки..**

6. Kashkovskiy V.G. Razrabotka optimalnoy texnologii soderjaniya pchel i yee vliyanie na razvetie pchelovodstva sibiri. Avtoreferat dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktor selskoxozyaystvennых nauk. – Novosibirsk, 2006.

7. To‘raev O. Salyamov S. Asalarichilikda bahorda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar. “Zooveterinarriya” j. 2010, №4, 45-bet.